

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

“СУҒУРТА ИШИ” КАФЕДРАСИ

КУРС ИШИ

Бажарди: СС-71 гуруҳ
талабаси: Избосаров Б.С.
Раҳбар: Қўлдоев Қ.М.

РЕЖА:

Кириш.

Асосий қисм:

1. Суғуртани классификациялашнинг зарурлиги ва моҳияти.
2. Назарий жиҳатдан суғуртанинг классификацияланиши.
3. Ўзбекистонда қабул қилинган “Суғурта фаолияти классификатори“ ва унинг ўзига хос хусусиятлари.
4. Суғуртани сегментлаш.

Хулоса.

Фойдаланилган адабиётлар

Кириш

Мустақиллик йилларида Ўзбекистон миллий суғурта бозори кескин равишда ўзгарди ва бугунги кунга келиб мазкур соҳа иқтисодийнинг муҳим ва ажралмас тармоқларидан бирига айланди. Суғурта бозорини бундан кейинги ривожлантириш ва ислоҳ қилиш мақсадида амалга оширилаётган комплекс тадбирлар, хусусан шу тадбирларнинг таркибий қисми бўлган суғурта қонунчилигини такомиллаштириш биринчи навбатда инсонларнинг суғуртага ва суғурта ташкилотларига бўлган ишончини оширишга, шу билан бирга уларда замон талабларидан келиб чиққан ҳолда ҳосил бўлаётган янги талабларни қондиришни таъминлашга қаратилган.

Суғурта бозори бозор иқтисодиётининг муҳим сегментларидан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам мазкур бозорнинг бир текисда ривожланишини ва суғурта компанияларининг тўловга қобиллигини таъминлаш давлатнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади.

Мамлакатнинг миллий манфаатларини ҳисобга олувчи, Ўзбекистонда қабул қилинган, иқтисодийни ислоҳ қилиш ва модернизациялашнинг ўзига хос модели жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози шароитида, юз бериши мумкин бўлган катта йўқотишларнинг олдини олиш имконини берди. Чуқур ва ҳар томонлама ўйлаб, ҳамда ўз вақтида қайта кўриб чиқиётган суғурта соҳасидаги давлат сиёсати эса миллий суғурта бозори кўрсаткичларининг йилдан-йилга ўсиш имкониятларини яратиб бермоқда.

Суғурта бозори профессионал иштирокчилари фаолиятини назорат қилиш ва тартибга солиш ҳозирги кунда мамлакатимизда 2002 йил 5 апрелда Олий Мажлис томонидан қабул қилинган “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги қонун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 10 апрелда қабул қилинган ПП-618 сонли “Суғурта хизматлари бозорини янада ислоҳ қилиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, Вазирлар маҳкамасининг 1998 йил 8 июлдаги 286 сонли “Суғурта фаолиятини давлат томонидан тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ва 2002 йил 27 ноябрда қабул қилинган 413 сонли “Суғурта хизматларини бундан кейинги ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, ҳамда бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида амалга оширилмоқда.

Суғурта фаолиятининг ривожланишини таъминлаш мақсадида давлатимиз томонидан кейинги йилларда солиқ бўйича суғурта компанияларига кўплаб имтиёзлар, жумладан, дивиденд ва фоизлар кўринишида олинган даромадларни солиққа тортишдан озод қилиш, тежалган маблағларни ҳудудий бўлинмалар ташкил қилиш, ҳудудларда агентлик шахобчаларини ривожлантириш ва уларнинг моддий-техника базасини кенгайтиришга йўналтириш шарти билан фойда солиғидан озод қилиш, қўшилган қиймат солиғидан озод қилиш каби бир қанча имтиёзлар берилдики, бу имтиёзлар уларни молиявий барқарорлигининг таъминланишига, капитализация даражасининг ошишига олиб келмоқда.

Ўз ўрнида фуқаролар, корхона ва ташкилотларни суғурта хизматларидан фойдаланишларини рағбатлантириш мақсадида суғурталанувчилар учун ҳам

бир қанча солиқ имтиёзлари берилдики, булар, суғурталанувчи юридик шахс бўлган ҳолатда мол-мулк суғуртаси ва ходимларининг ҳаётини узоқ муддатли суғурталаш учун тўлаган суғурта мукофотлари ҳамда суғуртанинг мажбурий шаклларига ажратмалари солиққа тортиладиган базадан чиқариб ташланади. Суғуртанинг бошқа шакллари бўйича суғурта мукофотини тўлаш харажатлари маҳсулот (товар, иш, хизмат) сотишдан тушадиган тушумнинг 2 фоизигача бўлган миқдорида солиққа тортилмайди. Ўз мол-мулкини ёки ҳаётини узоқ муддатли суғурталаган жисмоний шахслар тўлаган суғурта мукофотлари бўйича даромад солиғи тўлашдан озод қилинган. Жисмоний ва юридик шахсларга тўланган суғурта копланмалари солиққа тортилмайди.

Суғурта соҳасида амалга оширилган комплекс тадбирлар қуйидаги натижаларни берди.

2012 йил натижаларига кўра республика бўйича йиғилган суғурта мукофотлари ҳажми 285,9 млрд. сўмни ташкил этди (2011 йилга нисбатан ўсиш даражаси - 123,4 %).

Мазкур кўрсаткич сўнги 9 йил давомидаги тўпланаётган суғурта мукофотлари динамик ўсишининг давоми ҳисобланади. 2004 йилга нисбатан йиғилган суғурта мукофотлари ҳажми 8,7 марта ортганлиги бунинг исботидир.

Асосий қисм:

1. Суғуртани классификациялашнинг зарурлиги ва моҳияти.

Суғурта узок тарихий ривожланиш босқичига эга. Ўтган узок давр ичида суғурта кескин даражада ўзгарди, ривожланди ва мураккаблашди. Суғурта мамлакатлар иқтисодиётининг, мамлакатлараро иқтисодий ва маданий алоқаларнинг ривожланишида ҳамда фуқароларнинг ҳаёти ва фаолиятида хизмат қилувчи муҳим соҳага айланди.

Бугунги кунда суғурта хизматларининг дунёда икки юздан ортиқ турлари амал қилиб келмоқда. Бу даражада суғурта хизматлари турларининг хилма-хилиги ортиши ушбу хизматларни хусусиятларидан келиб чиқиб классификациялаш, сегментациялаш ва шу асосда уларни тартибга солиш, шу асосда ўрганиш заруратини келтириб чиқарди.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда суғурта бозори ривожланган мамлакатларда дастлаб суғуртани олимлар томонидан назарий жиҳатдан классификацияланиб ўрганила бошланди ва амалий томондан ҳуқуқий ҳужжатлар асосида ҳар бир мамлакатда суғуртани классификациялаш йўлга қўйила бошланди.

Суғуртани назарий ва амалий жиҳатдан классификацияланиши ушбу соҳани маълум тартибга солиш имконини берди. Бу эса ўз ўрнида ушбу соҳани назарий жиҳатдан ўрганишда қулайликлар яратди. Амалий жиҳатдан классификацияланиши эса суғурта фаолиятини амалга оширувчи профессионал иштирокчиларнинг иш фаолияти учун қулай шарт-шароитларнинг яратилишига имкон берди.

2. Назарий жиҳатдан суғуртанинг классификацияланиши.

Суғуртани назарий жиҳатдан классификациялаш дунё олимлари томонидан суғуртанинг турли ривожланиш босқичларида турлича классификацияланиб келинган. Суғуртанинг ҳозирги ривожланган босқичида

суғурта назарий жиҳатдан олимлар томонидан тўрт қисмга ажратиб ўрганиб келинмоқда.

Унга кўра суғурта қуйидагича классификацияланади:

1.Мулкый суғурта

2.Шахсий суғурта.

3.Жавобгарлик суғуртаси.

4.Тадбиркорлик таваккалчиликлари суғуртаси.

Мулкый суғурта тармоғида фуқаролар ва турли мулк шаклидаги корхона ва ташкилотларнинг турли кўринишдаги мулклари суғуртаси, уларни суғурталашнинг ўзига хос хусусиятлари ўрганилади.

Шахсий суғурта тармоғида мамлакат ва чет эл фуқароларининг ҳаёти, соғлиги билан боғлиқ суғурта турлари ва уларни амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари ўрганилади.

Жавобгарлик суғуртаси тармоғида фуқароларнинг ва турли мулк шаклидаги корхона ва ташкилотларнинг ҳамда турли масъулиятли касб эгаларининг ўз фаолиятларини амалга ошириш давомида бошқа фуқароларнинг мулки, ҳаёти ва соғлигига ёки корхона ва ташкилотларнинг мулкига етказиши мумкин бўлган модий ва бошқа зарарлари билан боғлиқ суғурта турлари, уларни амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари ўрганилади.

Тадбиркорлик таваккалчиликлари суғуртаси тармоғида тадбиркорлик фаолиятини амалга оширувчи корхоналар, фирмалар ва бошқа кўринишдаги юридик шахслар ҳамда хусусий тадбиркорларнинг ўз фаолиятларини амалга ошириш жараёнидаги хавф-хатарларнинг суғуртавий таъминоти билан боғлиқ жараёнлар ўрганилади.

4.Ўзбекистонда қабул қилинган “Суғурта фаолияти классификатори” ва унинг ўзига хос хусусиятлари.

Sug'urta faoliyati klassifikatori - sug'urtalovchilar hamda sug'urta brokerlari sug'urta faoliyatini litsenziyalash jarayonida ularning faoliyat yo'nalishlarini belgilashda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladigan me'yoriy hujjatdir. Sug'urta

faoliyati klassifikatorida keltirilgan klasslar yordamida sug'urtalovchilarning sug'urta xizmat turlari bo'yicha sug'urta shartnomalari tuziladi.

Sug'urta xizmatlarini ko'rsatish ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi:

- 1.1. ixtiyoriy;
- 1.2. majburiy.

Cug'urta faoliyati klassifikatorida ikkala turda amalga oshiriladigan sug'urta turlari ham mavjud bo'lib, ular: javobgarlik sug'urtasi, mulkiy sug'urta va hayot sug'urtasiga bo'linadi.

Mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlari bo'yicha klassifikator ham 2002 yil 27 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi - "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Nizomga 1-ilova sifatida sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan.

Mazkur sug'urta faoliyati klassifikatorining qabul qilinishi sug'urta kompaniyalari uchun sug'urta faoliyatini amalga oshirishda asos hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyati uchun litsenziya olishda Moliya vazirligi tomonidan qo'yiladigan talablarda ham faoliyat yuritmoqchi bo'lgan sug'urta xizmatlari bo'yicha sug'urta shartomlaridan nusxa taqdim etilishi shart hamda arizada sug'urta klasslari nomlari ham keltiriladi. Keltirilgan sug'urta turlari bo'yicha boshqa talablar ham o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27 noyabr 2002 yilda qabul qilingan 413 sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida sug'urta klassifikatori qabul qilinib, bu klassifikator bo'yicha sug'urta quyidagi ikki tarmoqqa bo'lindi:

I. Hayot sug'urtasi tarmog'i.

Bu tarmoq quyidagi klasslarni o'z ichiga oladi:

1. Hayot va annuitetlar.
2. Nikoh va tug'ilish.

3. Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish.
4. Sog'liqni sug'urta qilish.

II. Umumiy sug'urta tarmog'i.

Bu sug'urta tarmog'i quyidagi klasslardan tashkil topgan:

1. Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish.
2. Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish.
3. Er usti transport vositalarini sug'urta qilish.
4. Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish.
5. Aviatsiya sug'urtasi.
6. Dengiz sug'urtasi.
7. Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish.
8. Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish.
9. Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish
10. Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish.
11. Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish.
12. Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish.
13. Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish.
14. Kreditlarni sug'urta qilish.
15. Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish.
16. Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish.
17. Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish.

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning muhim vochtalaridan biri sug'urta kompaniyalarini litsenziyalashdir. Sug'urta kompaniyalariga faoliyat ko'rsatish uchun ruxsat beruvchi litsenziyalar ushbu klasslar asosida beriladi. Yuqoridagi qarorda sugurta kompaniyalari uchun minimal ustav kapitallari miqdorlari ham belgilandi. Bunda hayot sug'urtasi tarmog'i klasslari asosida faoliyat ko'rsatish uchun litsenziya olishga talabgor kompaniyalar uchun belgilangan ustav kapitalining minimal miqdorlari umumiy sug'urta tarmog'i klasslari asosida faoliyat

ko'rsatishga talabgor kompaniyalar uchun belgilangan minimal miqdorlardan birmuncha yuqori qilib belgilangan. Chunki hayot sug'urtasi tarmog'i klasslaridagi sug'urta turlarining zararlilik koeffitsienti nisbatan yuqori va ushbu tarmoqdagi sug'urta turlarining aksariyat qismida qo'yilgan mablag'lar omonat xususiyatiga ega.

4.Сугурта бозорини сегментациялаш.

Ma'lumki, sug'urta bozori talab va taklif asosida shakllanadi, bu erda avvalo talabni aniqlash juda muhim hisoblanadi va shu asosda sug'urta bozorini o'rganish, tahlil etish lozim.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda sug'urta bozorini o'rganishda muntazam ravishda marketing tadqiqotlaridan foydalaniladi, marketing kuzatishlari asosida sug'urta bozori kompleks tarzda guruhlariga ajratilib o'rganiladi.

Sug'urta bozori manfaatlar nuqtai-nazaridan cheksiz bo'lib, bu bozorda minglab sotuvchilar va xaridorlarning manfaatlari uyg'unlashadi. Sug'urta bozori turli sug'urtaviy qiziqishlarni, turli xo'jalik sub'ektlari va aholi qatlamlarini qamrab oladi. Shuni hisobga olgan holda sug'urta kompaniyalari o'z faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida bozorni segmentlashni amalga oshiradi. Bozor segmenti – sug'urta xizmatlari iste'molchilarining ma'lum guruhi bo'lib, ular umumiy xususiyatga ega bo'lgan va sug'urtachilar nuqtai-nazaridan umumiy parametrlarga ega bo'lgan aholi yoki korxona guruhlaridir.

Bozorni segmentlash – potensial iste'molchilarni ma'lum umumiy belgilari bo'yicha alohida guruhlariga ajratishdir. Sug'urtada segmentlash geografik, demografik va daromad olish darajasidan kelib chiqib amalga oshiriladi.


Geografik segmentlash – hududiy belgilariga asosan amalga oshiriladi, ya'ni respublika, viloyat, o'lka, shahar, tuman bo'yicha potensial sug'urtalanuvchilarni ma'lum umumiy belgilari bo'yicha guruhlariga ajratishdir. Mazkur segmentlashni bir necha hududlarda faoliyat ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan sug'urta kompaniyalari amalga oshiradi. Ushbu hududlar bo'yicha geografik segmentlarni aniqlab olib, kompaniya bu hududda o'z o'rniga ega bo'lib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Demografik segmentlash sug'urtachiga sug'urtalanuvchining yoshi, jinsi, oila tarkibi, daromad darajasi kabi xususiyatlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Korxonalarni turli xususiyatlari bo'yicha segmentlash quyidagi rasmlarda keltirilgan (2.4-1 rasm).


Sug'urta bozorini segmentlashda xaridorlarning ma'lum guruhlarining sug'urta xizmatiga bo'lgan talablarini o'rganish marketing tadqiqotlarida umumiy an'anaga aylangan, ammo sug'urta bozorini segmentlashda sug'urtalanuvchilarni xaridor sifatida yakka holda o'rganish usuli ham amaliyotda mavjud usullardan

biridir.


2.4.1- rasm




- Segmentlanmagan bozor




- Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha bozorni to'liq segmentlash



- Korxona daromadlari bo'yicha bozorni segmentlash



- Korxonalarni katta-kichikligi bo'yicha segmentlash



- Korxonalarni daromadlari bo'yicha segmentlash

Sug'urta bozorida individual holda mijozlarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabini o'rganish juda katta mablag'ni talab qiladi va bunday usulda bozorni marketing guruhi tomonidan segmentlash qimmatga tushadi. Kichik sug'urta kompaniyalari bozorni o'rganishning bunday usulini qo'llay olmaydilar, bunday usuldan yirik va iqtisodiy jihatdan baquvvat sug'urta kompaniyalari foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Sug'urta bozorini segmentlashda har doim sug'urtalanuvchilarning ichki

talablari e'tiborga olinib, bir–biriga yaqin elementlar talab bo'yicha jamlanib umumiy xulosa chiqariladi. Shuning uchun marketing yordamida segmentlashda xaridorlarni holatiga qarab segmentasiya qilish, sug'urta bozorini ma'lum darajalari bo'yicha bo'lib, keyin o'rganishni, ya'ni sug'urta xizmatini sotib oluvchilarni holatiga qarab o'rganish, shunga qarab sug'urta xizmatlarini sotishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Sug'urta bozorida segmentatsiya har bir sug'urtachining maksimal holda sug'urtalanuvchilarning ma'lum guruhlarini talablarini qondirishga moslashib borishini talab etadi.

Shular bilan bir qatorda sug'urtalovchi marketing kuzatishlarini olib borganda bir-biriga o'xshamagan mijozlarning talablarini har tomonlama o'rganishi, sug'urta polislarini sotib olishga bo'lgan moliyaviy imkoniyatlarni ham o'rganishi zarur.

Bozorni segmentlash orqali sug'urtachi marketing kuzatishlari davomida sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablarning o'zgarib borishini ham aniqlashi mumkin. Bu avvalo mijozlar oladigan daromadlarning o'zgarishi yoki jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy holatning o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlardir.

Marketing kuzatishlarida marketing strategiyasiga xam aloxida e'tibor bilan qarash lozim, chunki umumiy marketing kuzatishlarida sug'urtalovchi sug'urta xizmatini faqat bir turi bo'yicha faoliyat olib borishi ham mumkin.

Ommaviy marketing kuzatishlarini olib borish sug'urta kompaniyalariga birmuncha arzonga tushadi va natijada kompaniya xarajatlarining kamayib, sug'urta xizmatlari baholarining pasayishiga va oqibatda mijozlar sonining oshishiga olib keladi. Ma'lumki differensiyalashgan marketing umumiy marketingdan farq qilib, bunda sotuvchi sug'urta xizmatlarining ikki va bir necha turlari bo'yicha sug'urta polislarini sotadi.

Marketing tizimida maqsadli marketing alohida o'rin egallaydi, maqsadli marketing bo'yicha sug'urta polisini sotuvchi bozorda realizasiya qiladigan xizmatlarning ayrim turlari bilan shug'ullanishga, sug'urta xizmatining ayrim turlari bo'yicha xizmat ko'rsatishga ixtisoslashadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta bozorini kuzatish segmentlashda maqsadli marketing sug'urtachilar uchun eng qulay yo'nalish hisoblanadi. Sug'urta kompaniyasi sug'urta bozorida o'zi ko'rsatayotgan xizmatlar xaridorlar tomonidan qanday qabul qilinishini, ya'ni daslab ko'rsatayotgan xizmatlarga talabning kutilgan darajada emasligi yoki xaridorlar tomonidan to'liq qabul qilinayotganligiga alohida etibor berish zarur.

Shuni takidlash lazimki, sug'urta bozorini segmentlash o'ziga xos tamoyillariga ega bo'lib, o'z navbatida hamma sohani qamrab oladigan marketing kuzatishlarini amalga oshirishning iloji yo'q. Ammo ayrim yirik sug'urta kompaniyalari milliy sug'urta bozorini segmentlashni ayrim davlatlar miqyosida o'tkazishni lozim deb qabul qilishadi.

Yevropadagi sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarning marketing kuzatishlari orqali bozorni segmentlash quyidagi xususiyatlar bo'yicha amalga oshiriladi (2.4.1-jadval).

Sug'urta bozorini segmentlash	Chuqurroq belgilar bo'yicha sug'urtalash
1.Xususiy shaxslar, yoshlar, keksalar va yirik kapital egalari 2.Erkin mutaxassislik bo'yicha ishlovchilar, vrachlar, notarius, soliq bo'yicha maslahatchi, kichik sotuvchi, xunarmand, fermer. 3.Sanoat korxonalari va boshqa firmalar. 4.O'z-o'zini boshqarish tashkilotlari, professional va boshqa tashkilotlar.	1.Yoshi, daromadi, malakasi, naqd mulki, bolalar soni va h.o.bo'yicha. 2.Tekshirilayotgan obyektlar faoliyati riskining xarakteri, kapital miqdori va boshqalar. 3.Faoliyatdagi xodimlar soni, eksport xajmi, riskning xarakteri, iqtisodiyotning qaysi tarmog'ida korxona faoliyat yuritadi, rahbari yoshi, ishchanligi, optimistligi. 4.Faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchilarning soni, hamjihatligi.

Respublikamizda ham shu tajribadan foydalanish sug'urta bozorida sug'urta xizmatlarining yangi turlarini yo'lga qo'yilishiga olib keladi, natijada sug'urta bozorida sug'urta xizmatlarining turlari ko'payadi, sug'urta maxsulotlariga bo'lgan talab qondirib boriladi.

Sug'urta bozorini demografik jihatdan segmentlashda sug'urtalanuvchilarni jinsi, yoshi, oila a'zolarining soni, oila oladigan umumiy daromad hajmi, oila a'zolarini faoliyat turlari, yashovchilarning ma'lumot darajasi, diniy qarashi, irqi va millati bo'yicha o'rganish yaxshi natija beradi. Jahondagi mashhur sug'urta kompaniyalari bozorni segmentlashda aynan demografik jihatdan o'rganishga katta e'tibor berganligi tufayli ular olayotgan sug'urta mukofotlari katta bo'lmoqda.

Хулоса

Бугунги кунда ҳукуматимиз томонидан Молия вазирлиги олдиға, суғурта компаниялари ва суғурта бозори профессионал иштирокчилари Уюшмаси олдиға замонавий суғурта хизматларини ишлаб чиқиш ва кўпайтириш, кўрсатилаётган суғурта хизматларининг сифатини ошириш, суғурта компанияларининг капитализация даражасини ошириш ва молиявий барқарорлигини таъминлаш, ҳамда мазкур соҳани тартибга солиш восита ва усулларини такомиллаштириш вазифасини қўйди. Бу вазифаларни амалга ошириш ривожланган, замонавий ва рақобатбардош суғурта бозорини шакллантириш ва кенгайиб боришини таъминлаш, ҳамда аҳоли ўртасида суғурта маданиятининг ошишиға олиб келади.

Суғурта мукофотларининг суғурта турлари бўйича ўсиш даражасига эътибор берадиган бўлсак, мажбурий суғурта турлари бўйича йиғилган суғурта мукофотлари ҳажмининг ўсиш даражаси юқори эканлигини кўриш мумкин. Бу кўрсаткич бўйича 2012 йилдаги ўсиш 2007 йилга нисбатан 15,1 мартани ташкил этган (ихтиёрий суғурта турлари бўйича ўсиш 3,5 марта). Бунинг сабаби албатта 2008 йилда амалга киритилган автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси ва 2009 йилда амалга киритилган иш берувчининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғурталаридир.

Мажбурий суғурта одатда фуқароларнинг, корхона ва ташкилотларнинг ҳамда давлатнинг ижтимоий ва иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида ишлаб чиқилади. Етказилаётган моддий зарарлар умумдавлат аҳамиятига эга бўлган ҳолатларда давлат томонидан суғуртанинг мажбурий шакли амалга киритилади.

1993 йилда қабул қилинган “Ҳаво транспорти, темир йўл, ички жамоат транспорти ва сув транспорти йўловчиларини мажбурий шахсий суғуртаси тўғрисида” ги Қонундан кейин қабул қилинган қонун 2008 йилда қабул қилинган “Автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни бўлди. Мазкур қонун аҳоли кенг қатламларининг суғурта хизматлари билан таъминланиши, суғурта хизматлари рақобат бозорининг ривожланиши, агентлик шахобчаларининг кенгайиши, ҳамда янги иш ўринларининг яратилишига олиб келди. Бунда шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, юқоридаги қонун қабул қилингунга қадар 1994 йил 30 декабрда Вазирлар маҳкамасининг транспорт ва бошқа ўзинлар машина ва механизмлар эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурталаш тўғрисидаги қарори амал қилган эди. Аммо бу қарор мазкур суғурта турини амалга ошириш бўйича халқаро амалиёт талабларига, ҳамда республиканинг иқтисодий ривожланиш даражаси ва тенденцияларига мос келмас эди.

Ушбу мажбурий суғуртанинг киритилиши бир томондан суғурта тармоғининг муҳим муаммоларидан бири бўлган аҳоли суғурта маданиятининг ошишига ижобий таъсир кўрсатди, иккинчи томондан суғурта ҳодисалари юз берганда зарарни қоплашнинг қафолатланган тизимини яратди. Натижада зарар кўрганларга тўланадиган суғурта қопламалари ҳажми кескин ошди, бу эса аҳоли ижтимоий ҳимоясининг муҳим элементларидан бири ҳисобланади.

“Автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси тўғрисида” ги қонуннинг мақсадлари:

- фуқароларнинг мулкӣ манфаатларини ҳимоя қилиш;
- аҳоли кенг қатламларини суғурта хизматлари билан таъминлаш;
- ҳудудий бўлинмалар ва суғурта агентлари сонини кўпайтириш;
- янги иш ўринларини яратиш кабилардан иборат.

Мазкур суғурта турининг мақсадларини амалга ошириш индикатори ва ушбу суғурта турининг суғурта бозорига таъсир кучини таҳлил қилиш мақсадида қуйидаги кўрсаткичлар аниқланди:

- суғурта мукофотлари ҳажми;
- суғурта қопламалари ҳажми;

- суғурта мукофотлари ва қопламаларнинг суғурта шартномалари сонига нисбати;

- суғурта компанияларининг ҳудудий бўлинмалари ва ходимлари ҳамда суғурта агентлари сонининг ўзгариши;

- зарарлилик даражаси;

Таҳлиллар кўрсатмоқдаки, юқоридаги мажбурий суғурта турининг киритилиши мажбурий суғурта турлари бўйича йиғилган суғурта мукофотлари ҳажмининг кескин ошишига сабаб бўлган ва ўз ўрнида аҳоли кенг қатламларининг суғурта хизматлари билан таъминланишига эришилган. Мазкур мажбурий суғурта турининг киритилиши мажбурий суғурта турлари бўйича тўланган суғурта қопламалари ҳажмининг ҳам кескин ошишига олиб келган.

“Автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси тўғрисида”ги қонун талабларига кўра мажбурий суғуртани амалга оширувчи суғурталовчи Тошкент шаҳри, Қорақолпоғистон Республикаси ва вилоятларда мажбурий суғуртани амалга оширувчи бўлинмаларига эга бўлиши ва бу бўлинмалар суғурталанувчиларнинг суғурта ҳодисаси натижасида кўрган зарарларини қоплаб бериш ҳукуқига эга бўлишлари зарур.

Мазкур талаб юқоридаги суғурта қонуни қабул қилинишдан олдинги 2007 йилдаги 465 та суғурта бўлинмалари сонининг қонун қабул қилингандан кейинги 2011 йил натижалари бўйича 959 тага етишига олиб келди. Ушбу талаб суғурта компанияларининг ҳудудий бўлинмаларни ташкил қилиш учун зарур бўладиган моддий техник база яратиш харажатлари, малакали ходимлар ва суғурта агентлари билан таъминлаш бўйича қўшимча моддий харажатларни келтириб чиқарсада, шу билан бирга бир хил рисклар концентрацияси даражасини камайтириб, мазкур рискларни кенг ҳудудлар бўйича текис тақсимлаш имкониятини беради.

Ҳудудий бўлинмалар тизимининг кенгайиши янги ишчи ўринларини яратишни назарда тутди, бу эса суғурта компаниялари ходимлари сонининг ортишига олиб келади. Ўз ўринда суғуртанинг бундай оммавий турини ривожлантириш агентлик шахобчаларини ҳам кенгайтириш заруратини келтириб чиқаради. Бунинг исботи сифатида 2007 йилда суғурта агентлари сони 3384 тани ташкил қилганлигини ва бу кўрсаткич 2011 йилга келиб 6500 тага етганлигини айтиб ўтиш мумкин.

Амалга оширилган таҳлилларга кўра шу хулосага келдикки, йўл транспорт ҳодисаси натижасида зарар кўрганларнинг зарарларини тўлиқроқ қоплаш мақсадида, суғурта суммалари миқдорини ошириш ва ўз ўрнида ушбу суммани мулкий зарар ва инсон ҳаёти ва соғлиги билан боғлиқ зарар ўртасида пропорционал тақсимлаш зарур.

Амалга оширилган таҳлилларга кўра мазкур суғурта турини амалга ошириш бўйича инфратузилмани шакллантириш, аджастер, сюрвеер ва ассистанс фаолиятларини ривожлантириш, баҳоловчи компаниялар фаолиятини яхшилаш зарур. Кўп ҳолларда кўрилган зарарни баҳолашда баҳоловчи компаниялар томонидан кўрилган зарарни паст баҳолаш ҳолатлари юз бермоқда. Шу билан бирга шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, баҳоловчи

компанияларнинг кўпчилик мутахассисларида техник билимлар даражаси етишмайди.

Маълум бўлдики, мажбурий суғуртанинг ушбу тури бўйича суғурта полисини сотиб олиш билан бир вақтда кўплаб суғурталанувчилар суғуртанинг бошқа турлари бўйича ҳам полислар сотиб олишган бўлиб, бунга сабаб улар ушбу жараёнда суғурта тўғрисидаги маълум тушунчаларга эга бўлганликларидир.

Автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси бўйича амалга оширилган таҳлил натижалари бўйича қуйидаги хулосаларга келдик:

1.Халқаро талаб ва стандартларга жавоб берадиган автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги суғуртасини амалга ошириш бўйича тартиблар ишлаб чиқилган.

2.Суғурталанувчилар мулкӣ манфаатларининг ҳимояси кучайган.

3.Ялпи суғурта мукофотлари, шу билан бирга мажбурий суғурта турлари бўйича суғурта мукофотлари ҳажмининг ортиши таъминланган.

4.Қўшимча ишчи ўринлари яратилган.

5.Суғурталовчилар ҳудудий бўлинмаларининг тизими кенгайган.

6.Аҳолининг кенг қатламларини суғурта хизматлари билан таъминлашга эришилган.

7. Автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртасини амалга ошириш тизимига, шу билан бирга ушбу тизим билан боғлиқ йўлдош хизматларни (масалан зарарларни баҳолаш жараёни) кўрсатиш бўйича маълум ўзгартиришлар киритилишидан ушбу хизматдан фойдаланувчилар манфаатдор ва бу аҳоли суғурта маданиятининг ошишига олиб келади.

Автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртасини амалга ошириш жараёнидаги ўтган қисқа давр давомида маълум бўлдики:

1.Суғурталанувчи истемолчилар манфаатларини, ҳамда суғурталовчилар манфаатларини назарда тутувчи автомобил эгалари фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси тизимини такомиллаштириш масаласини кўриб чиқиш зарур. Хусусан зарар кўрган шахснинг моддий зарари, ҳамда ҳаёти ва соғлигига етказилган зарарни қоплаш ҳажми ўртасидаги нисбатни ўзгартириш масаласини кўриб чиқилиши, суғурталовчиларнинг ушбу суғурта тури бўйича харажатларини ошириш масаласини кўриб чиқиш, суғурта даъволарини кўриб чиқиш жараёнини такомиллаштириш мақсадида ушбу жараёнга аджастер ва сюрвеерларни тўлиқ жалб қилиш зарур.

2. Автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртасини амалга оширишни янада кенгайтириш ва яхшилаш, ушбу хизмат истемолчиларига мазкур хизмат моҳиятини тушунтириб беришни таъминлаш мақсадида суғурта компанияларининг ходимлари ва суғурта агентларининг малаксини ошириш ишларини кучайтириш зарур.

3. Автомобил эгаларининг фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғуртаси билан аҳолини тўлиқ қамраб олиш мақсадида оммавий ахборот

воситаларида мақолалар бериш, турли семинарлар, учрашувлар ташкил қилиш ва телевидениеда чиқишлар ташкил қилиш ишларини янада фаоллаштириш зарур.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, мамлакатимизда суғурта хизматлари тез суратларда ривожланиб ва кенгайиб бормоқда. Бунда суғурта хизматларининг назарий ва амалий жиҳатдан классификацияланиши ва хусусан 2002 йилда Вазирлар маҳкамасининг 413-сонли қарори асосида суғурта фаолияти классификаторининг қабул қилиниши суғурта хизматларининг янада ривожланишига, тартибга солинишида муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Узбекистан - по пути углубления экономических реформ. Т.: Узбекистон, 1995.
2. Алиев Р. Международная практика организации страхового надзора // Финансы 2000. - №12.
3. Алиев Р. Страхование регулирование в США: обзор // Страхование дело 2000. - №5.
4. Андреева Л. Ю., Акопова Е.С. Глобализация страхового рынка: информационно – парадигма. М.: 2004.
5. Богославский А.В. Новые технологии устойчивого развития страховых компаний. М.: 2005.
6. Грищенко О.В. Актуальные проблемы исследования страхового рынка. М.: 2004.
7. Платежеспособность страховых организаций в странах ЕС // Страхование дело 2001. - №3.
8. Тукманова Д.П. Страхование финансовых рисков. М.: 2004.
9. “Ўзбекистонда суғурта бозорининг ривожланиш истикболлари” конференция материаллари. Тошкент, ТМИ 2012 йил 28 февраль